

OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

Mavlyanova Gulnoza Olimovna

*Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 1-son kasb-hunar maktabi Yoshlar bilan
ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada rivojlanib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi hamda uning ma'naviyatini shakllantirishda ommaviy-azborot vositalarining o'rni va ahamiyati xususida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ommaviy madaniyat, yoshlar tarbiyasi, yosh bosqichlari, AKT, qadriyatlar, internet o'yinlari, starizm, globallashuv*

“Ommaviy madaniyat” nima o‘zi? Uning jamiyatga va kelajakka foyda – ziyoni qayerda ko‘rinadi? Uni targ‘ib etuvchilarning maqsadi nima? “Ommaviy madaniyat” ma‘naviy tanazzulning debochasidir. Uni targ‘ib qiluvchilarning asl maqsad va niyatlari ham qaysidir millat yoki xalqni *ma‘naviy jihatdan inqirozga uchratish bilan yengishga* qaratilgan. Chunki, turli yarim yalang‘och suratlar, fahsh kinofilmlar, har xil bemaza o‘yinlar odamlarda izlanish, yaxshilik sari intilish kayfiyatini yo‘qotadi. Bularning yoniga ayrim saviyasiz xonandalarning bemaza qo‘shiqlari, hayosiz kliplarini ham qo‘shish mumkin. Eng achinarlisi shuki, bularning bari atrofimizda sodir bo‘lmoqda. Yigitlar orasida qulog‘iga sirg‘a taqqan, yirtiq shim kiygan, uzun sochlari bilan maqtanadiganlari sonining ortib borishi kuzatilmoqda. Yoki milliy qadriyatlarni oyoqosti qilib kiyingan qizlarni olaylik. Ular erta – indin ota – ona bo‘lsa, farzandlariga qanday tarbiya beradi? O‘zlari axloqli bo‘lmay turib, zurriyotlariga odobni o‘rgata oladimi?

“Ommaviy madaniyat” G‘arb dunyosida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G‘arbda “pop – kultura” deb atashadi. Garchi “madaniyat” deb atalsa – da, aslida, tub mazmun – ma‘nosiga, maqsad – niyatiga ko‘ra “ommaviy madaniyat” chinakam madaniyatning kushandasidir. Mutaxassislarining fikricha, hali ilm–fanda “antikultura” (g‘ayrimadaniyat”) degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun “ommaviy madaniyat” tushunchasi nochorlikdan qo‘llanilmoqda. “Ommaviy madaniyat” ko‘pdan – ko‘p shakllarda o‘zini namoyon etadi. *Kitch* (zarracha badiiy – estetik qimmatga ega bo‘lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish), *komiks* (tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo rasmlar), *starizm* (subyektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilarni ilohiylashtirish), *xepining* (avvaldan rejalashtirilmagan, “keskin” tomoshalar, masalan royal, pianino yoki avtomobillarni urib sindirish yohud o‘t qo‘yish orqali vahshiyona, ommaviy “ko‘ngil ochishlar” uyushtirish) kabi ko‘rinishlarda. Qolaversa globallashuv yoshlarni “informatsion fashizm”, “demokratik fundamentalizm” orqali “ommaviy madaniyat”ning salbiy

ta'siri, vesterinizatsiya (g'arblashtirish), egosentrizm (xudbinlik), gedonizm (yoshligingda o'ynab qol), kiberludomaniya (internet o'yinlariga berilish), submadaniyat (bu hayotga moslashmaslik, o'z hayoti bilan yashash) kabi yot g'oyalar ta'siriga tushib qolish kabi holatlarni vujudga keltirayotganligi bilan ham kuchli e'tiborni talab qiladi.

Ommaviy madaniyat" va ma'naviy tahdidning boshqa usullaridan siyosiy qurol sifatida foydalanish hollarini tarixdan ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, general Skobelov "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini, yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi"¹, deya ta'kidlagan va buni amalga oshirish usullarini ilgari surgan arbob sifatida tanilgan.

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan, oldingi davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Globallashuv - bu eng avvalo, hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi², jamiyat hayotining barcha sohalariga bevosita ta'sir etayotgani bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday yozgan edi: "Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin"³.

Bugun dunyoda internet imkoniyatlaridan ko'plab kuchlar o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoqdaki, natijada zo'ravonlikka, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan ma'naviy va axloqiy xususiyatlarga asoslangan "ommaviy madaniyat" na'munalarini targ'ib qilish vositasida ma'naviy qadriyatlarning devalvatsiyasi, kishilar, ayniqsa yoshlar ma'naviy, axloqiy va ijodiy imkoniyatlarining pasayib ketishi xavfi yuzaga kelmoqda, bu esa o'z navbatida yangi texnologiyalarning, jumladan, axborot texnologiyalarining joriy qilinishi va qo'llanilishi uchun mehnat manbalarini tayyorlashni ahamiyatli ravishda murakkablashtirmoqda. Bu jarayonlar erkinlikni yo'qotishdan qo'rqish, ortib borayotgan yakkalanib qolish, odamlarning begonalashuvi va zamonaviy insonning global kommunikatsiyalarga bog'lanib qolishi natijasida vujudga kelayotgan yolg'izlik hissi faol ravishda namoyon bo'lmoqdaki, bunga ayniqsa internet tarmog'ining "virtual shaxs" va "internettobelik" kabi hodisalari ham ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur hodisalar oqibatida barcha ijtimoiy aloqalar ham shuningdek, virtual tabiatga ega bo'lmoqda.⁴

¹ Q.Usmonov. O'zbekiston tarixi. Darslik. "Turon - Iqbol" nashriyoti, Toshkent- 2012. 2-bet

² I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat – 2008. 77-bet.

³ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat – 2008. 77-bet.

⁴ F.Ibrohimov. Axborotlashgan jamiyatda inson begonalashuvining falsafiy tahlili. Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent

– 2018. 11-bet

Ilgari insoniyat o'zaro ziddiyatlarda qurol – yarog'ning turli ko'rinishlaridan foydalangan. Hozirgi zamondagi eng katta xavf insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurash tusini oldi. Endilikda yadro poligonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi. Ayni paytda g'oyaviy – mafkuraviy kurashlar yer yuzini, barcha mintaqa va mamlakatlarni qamrab olmoqda. Bugun bu jarayonlardan biror kishi yoki mamlakat chetda qolmaydi. Ayniqsa, diniy ekstremizm, fundamentalizm va boshqa axloqsizlik g'oyalarini kishilar ongiga singdirishdan iborat mafkuraviy - ma'naviy tajovuzlar mintaqaviy va umumbashariy muammo darajasiga chiqib, unga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishni taqozo qilmoqda.

Ayni paytda dunyoda demokratiya va erkinlik, oshkoralikning "yagona standart"ini zo'r berib targ'ib qilayotgan buzg'unchi kuchlar insonlar ongiga ta'sir ko'rsatishning turli yo'llaridan foydalanishga harakat qilmoqda. "Ommaviy madaniyat" ana shu yo'lda juda muhim vazifani – inson ma'naviyatini yo'qotish orqali uni bo'ysundirishga xizmat qiladi. Ularning fikricha, har bir millat, mamlakatning milliy madaniyati va qadriyatlari "eskilik sarqiti" bo'lib, ular ko'z – ko'z" qilayotgan "madaniyat" esa inson huquqlarini cheklamaydigan, har kim erkinligidan bemalol foydalanishga asoslangan emish. Shu o'rinda buyuk shoir Alisher Navoiyning quyidagi satrlari yodga tushadi:

Oldiga qo'yganni yemak – hayvonning ishi, Og'ziga kelganni demak – nodonning ishi.

Bu so'zlarni chuqur tahlil qilsak, har bir narsaga erkinlik beradigan "ommaviy madaniyat" niqobining tagidagi asl maqsad yaqqol ko'rinadi. "Ommaviy madaniyat"ning ham boshqa manipulyatsion usullar kabi dastlab yaqqol o'zini namoyon qilmaydi. Avvalo, juda kichik detallar, arziyas voqealar orqali odamlarni o'ziga o'rgatadi. Ana shunda 3 – 4 yoshdagi farzandimiz repper bo'lib kuylasa ham, o'g'limiz qulog'iga zirak taqib, qizimiz yirtiq shim kiyganida ham "zamona zayli" deya beparvo bo'lamiz. Qolaversa, farzandimizning zamonaviyligidan quvonamiz.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarlarida "ommaviy madaniyat"ning zararli xatarlaridan ogohlantirib, jumladan, shunday deydilar: "Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo – qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda"⁵.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ma'naviyatga tahdid kelajakka tahdid, demakdir. Dunyo bilan hamnafas bo'lish, erishilayotgan so'nggi yutuqlardan

⁵ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat – 2008. 81-bet.

xabardorlik zarur, albatta. Ammo odob – axloq masalasida sharq xalqlarining namuna bo‘ladigan jihatlari ko‘pligini unutmaslik lozim. Ularni buyuk ajdodlarimiz yozib qoldirgan asarlardan o‘rganish mumkin. Bu ishga yoshlarni targ‘ib etish esa, avvalo, ota – onaning, qolaversa ustozlarning zimmasiga katta mas‘uliyat yuklamoqda. Shunday ekan, bugun biz yosh avlod tarbiyasiga ertangi kun vorislari sifatida jiddiy e‘tibor berishimiz kerak. Har bir oilada sog‘lom moddiy – ma‘naviy turmush tarzini yaratilishi, yosh avlodning imkoniyatlarini, orzu – havaslarini yaxshilik va ezgulik uchun xizmat qilishga yo‘naltirilishi – ko‘plab muammolar oldini olish vositasi demakdir. Ertangi kun qanday bo‘lishi bizga, biz ta‘lim – tarbiya vakillariga ko‘p jihatdan bog‘liq.

REFERENCES:

1. Mukhamedzhanovna, M. Z., Akmalovna, U. N., Abdusamatovich, K. S., Gapparovna, S. D., Arifovna, U. D., & Tashpulatovna, K. P. (2021). Bioethics Paradigm of Humanization of Medical Education. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 125-133.
2. Умарова, Д. А., & Худайбергенова, П. Т. (2020). РОЛЬ ГРАЖДАНСКОГО
3. ОБЩЕСТВА В РЕШЕНИИ ПРОБЛЕМ ГУМАНИЗАЦИИ
4. МЕДИЦИНЫ. *Гуманитарный трактат*, (97), 25-28.
5. Фатима Ташпулатовна Худайбергенова, & Дилором Арифовна Умарова (2022). ПАРАДИГМА БИОЭТИКИ В СФЕРЕ БИОЭТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ.
6. Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (1), 196-200. doi: 10.24412/2181-1385-2022-196-200
7. Умарова, Д. А. (2021). ВАЖНЫЕ И АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ МОДЕРНИЗАЦИИ ГОСУПРАВЛЕНИЯ В СТРАТЕГИИ ДЕЙСТВИЙ ПО
8. ПЯТИ НАПРАВЛЕНИЯМ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В 2017-
9. 2021. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 421-430.
10. Мухамедов, А. Р. ЗАКОНОДАТЕЛЬНОСТЬ УЗБЕКИСТАНА И НЕКОТОРЫХ
11. ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН О ПРЕСТУПЛЕНИЯХ В СФЕРЕ
12. ТРАНСПЛАНТОЛОГИИ. *Human dignity and human rights*, 108.
13. Мухамедов, А. Р. (2022). Вопросы совершенствования законодательства



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



14. Ўзбекистанда о преступленнях в сфере трансплантологии с учетом зарубежного опыта. *Academic research in educational sciences*, (Conference), 92-97.

15. Элдор Абдурасулович Ўринбоев (2023). ТАЯНЧ ҲАРАКАТ АППАРАТИ ШИКАСТЛАНГАН ТАЛАБАЛАРНИНГ ҲАРАКАТ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Academic research in educational sciences*, 4 (1), 239247.

16. Ўринбоев, Э. А. (2022). ТАЯНЧ ҲАРАКАТ-АППАРАТ ШИКАСТЛАНГАН

17. ТАЛАБАЛАРДА КООРДИНАЦИЯ ҚОБИЛИЯТИНИНГ ТАВСИФИ. *Fan-Sportga*, (1), 44-46.

18. O'rinboyev, E. (2021). ADAPTATION OF STUDENTS WITH DISABILITIES TO SPORT TRAINING LOADS IN THE CONTEXT OF BASIC MOBILITY. *Karakalpak Scientific Journal*, 4(1), 23-31.

